

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinlardan foydalanishni  
samarali vositasi sifatida**

*Ro'zmatova Mahliyo Baxrom qizi-Urganch davlat  
pedagogika instituti, Ta'lim va tarbiya  
nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)  
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi davrdagi maktabgacha ta'lim tizmi haqida yoritilgan. Shuningdek maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinlardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan bo'lib, shu bilan birga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinlardan foydalanishni samarali vositasi ekanligi ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim tashkiloti, ta'lim, o'yin, texnologiya, o'yinli texnologiya, vazifa, ijtimoiy muhit.

O'yin texnologiyasi ham o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi. L.S. Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi. Har qanday o'yin muayyan vazifalarni bajaradi:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- tashxis;
- o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi muloqot;
- ijtimoiylashuvlik.

Ma'lumki, o'yinlar quyidagi to'rt asosiy xususiyatga ega:

-erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya’ni bola o‘yinni o‘zi tanlaydi, unda faol ishtirok etadi. Bunda birinchi navbatda yakuniy natija emas, balki o‘yin jarayoni muhim ahamiyatga ega;

-ijodiy xarakter, ya’ni o‘yin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyatlar mavjud;

-emotsional ta’sir-bola o‘yinda markaziy o‘rin egallashni xohlaydi, g‘olib bo‘lishga intiladi, bu bolaning faolligini oshirishga yordam beradi;

-asosiy va qo‘srimcha qoidalar o‘yin mazmuni, uning mantiqiy ketma-ketligini belgilaydi.

O‘yin tuzilishiga- maqsad, rejalshtirish, maqsadga erishish, natijalarni tahlil qilish kabi komponentlar kiradi. O‘yining eng asosiy xususiyati uning ijodiyligidadir. U o‘zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo‘ladi. Ilmiy tadqiqod ishlari natijasi shuni ko’rsatadiki, nazariy jihatdan o‘yinga faoliyat, jarayon va o‘qitish metodi sifatida qarash mumkin. O‘yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalshtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subyekt sifatida o‘z imkoniyatlarini to‘la amalga oshiradi. O‘yinli faoliyatni motivatsiyalash o‘yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o‘zini namoyon qila olishi, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Shuningdek, jarayon sifatida o‘yin tuzilmasi quyidagilarni qamrab oladi:

- o‘ynash uchun olingan rollar;
- bu rollarni ijro etish vositasi bo‘lgan o‘yin harakatlari;
- haqiqiy narsalarni shartlilarga almashtirish;
- o‘yinda ishtirok etuvchilarining real o‘zaro munosabatlari;
- o‘yinda shartli ravishda yaratilgan sujet (mazmun).

Har qanday texnologiyada, jumladan, o‘yin texnologiyalarida ham, o‘quv maqsadi aniq belgilanishi zarur. Bu texnologiyaning asosiy negizidir. Maqsad to‘g‘ri qo‘yilishi uchun tarbiyachi bolaga nimani o‘rgatmoqchi bo‘lganligini bilishi kerak. Bitta mashg‘ulotda bitta maqsad qo‘yilishi maqsadga muvofiq. Masalan, bolalarni 3 raqami bilan tanishtirish yoki yil fasllari haqida tushuncha

berish va h.k O‘yin texnologiyalari (ayniqsa, bog‘cha bolalari uchun) rivojlantiruvchi maqsadlarni (bolaning idrok, xotira, diqqat, tafakkurini rivojlantirish) amalga oshirishi ham mumkin. Bunda o‘yin jarayonida yakuniy natija muhimroq bo‘ladi. Pedagogik ijrochilik o‘yinlarini bola uch yoshdan boshlab o‘zlashtira boshlaydi. Shu yoshga kelib bola odamlar o‘rtasidagi munosabatlar bilan tanisha boshlaydi, hodisalarning ichki va tashqi tomonlarini ajrata boshlaydi, o‘zida ichki kechinmalarni sezal boshlaydi. Ularga munosabat bildiradi. Maktabgacha yoshda bolalar o‘yin faoliyatini o‘zlashtira borib ijtimoiy qadrli va ijtimoiy baholanuvchi faoliyatga tayyorlana boshlaydilar. Maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llaniladigan pedagogik o‘yinlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Bolalar kayfiyatini ko‘taruvchi.
  2. Hamkorlikka chorlovchi.
  3. Bolalarni o‘zligini namoyon etishga chorlovchi.
  4. Bolalarda o‘ziga ishonch hissini shakllantiruvchi, jismoniy va intellektual muammolarni yo‘qotishga qaratilgan.
  5. Maktabgacha bolalar xatti-harakatidagi cheklanishlarni tavsiflovchi (diagnostika).
  6. Bolalar shaxsi strukturasiga ijobiy korreksiyalar beruvchi.
  7. Millatlararo bag‘rikenglikni shakllantiruvchi.
  8. Bolalarda ijtimoiy, jamoaviy munosabatlarni shakllantiruvchi o‘yinlar.
- O‘yin texnologiyasini qo’llash o‘quv jarayonida ishtirok etishni faollashtirishning bir usulidir. O‘yin metodlarini tatbiq etish tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchi orasidagi munosabatlarning umumiyligi ijtimoiy jarayonlarida yangiliklarni izlab topishga borib taqaladi. Bola muomalasi madaniylik darajasini didaktik jarayonda ko‘tarish zaruriyati tarbiyalanuvchilarning e’tibor darajasini yuksaltirish va ularning atrofga bo’lgan qiziqishlarini ta’minlaydi. Bolaning ijodiy iste’dodini, xotira va diqqatini, kattalarga ma’lum bo’lgan jihatlarni qayta kashf etadi. Vaqtni bo’sh o’tkazish emas, aksincha, ta’lim olishning eng samarali uslubidir. Chex pedagogi Ya.A.Komenskiy uyinni bola faoliyatining asosiy shakli ekanligini ta’kidlab, aynan uyin bolaning tabiatini va kuzu -qishlariga mos kelishini

aytgan edi1. Bolalar bir-biri bilan muloqatda bo'lishni, ma'lum tartib qoidalarni saqlashni, o'zini boshqara bilishni, hamkorlikda bo'lishni, boshqalarning fikri bilan xisoblashishni, ularning xohish-istiklarini e'tiborga olishni, bir narsani diqqat bilan bajarishni va boshlagan ishini oxiriga yetkazishga o'rganadi. O'yin - ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'naltirilgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.O'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi.

"O'yin faoliyati"ni kuzatishda qo'yiladigan me'zonlar:

- 1.Guruxlardagi o'yin burchaklarining mavjudligi.
- 2.O'yin burchaklaridagi jihozlarning ahvoli.
- 3.O'yin va o'yinchoqlarning bola yoshiga mosligi.
- 4.Ertalabki soat o'ynlarning rejalashtirilishi.
- 5.O'yinli ta'lim faoliyatlarida o'ynlarning rejalashtirilishi.
- 6.Sayrlarda o'ynlarning rejalashtirilishi.
- 7.Kechki soatlarda o'ynlarning rejalashtirilishi.
- 8.O'yinlarning maqsadga yo'naltirilganligi.
- 9.Ta'limiy faoliyatda o'ynlardan foydalanilishi
- 10.O'yin faoliyatini tashkil etishda tarbiyachining faolligi va xk.

O'yin faoliyatida tarbiyachining vazifasi. Bolalarning faol qatnashishi tashkil etishi Qo'yilgan maqsadga erishish uchun yordam beruvchi o'yin turlarini o'ylab topishi Faoliyat jarayonida har bir bolaning faol qatnashishi uchun shart-sharoitni yaratishi Passiv bolalar bilan olib boriladigan ishni tashkil qilishi Tarbiyachi bolalar bilan erkin muloqot qilishi shart.

O'yin faoliyat sifatida - maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs sub'ekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'yin texnologiyalarning mohiyati:

- O'yin jarayon sifatida - o'yin tuzilmasida o'ynash uchun olingan rollar;
- Rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yin xarakatlari;

-O'yin tushunchalarni o'zlashtirishda o'qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi. O'yinlarining modifikatsiyalari: Immitatsion o'yinlar - Bunday o'yinlardan maqsad qaysidir tashkilot, muassasa va uning qismlari faoliyati andoza qilinadi. Voqealar, kishilarnig biror faoliyati (ish bitirish majlislari, rejani muhokama qilish, suhbatlar o'tkazish va b;), faoliyat holati va shartlari andoza qilib olinishi mumkin. Senariyda bo'nday o'ynash to'la tuzilmasi yozib chiqilgan va immitatsiya qilinadigan ob'ektlar va jarayonlar belgilanadi. Operatsion o'yinlar - Bunday o'yinlarda aniq o'ziga xos voqealari xodisaning bajarilishi mashq qilinadi. Operatsion o'yinlar ish jarayoniga xos modellashtiriladi. Rol ijro etish o'yinlari -Unda konkret shaxsning hulqi, hatti-harakati, o'z vazifalari va majburiyatlarini bajarilish taktikasi mashq qilinadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'limi tizimida pedagogik jarayonni tashkil etishda bolaning va tarbiyachining munosabatiga alohida e'tibor qaratish zarurati jarayonga yangicha yondoshuvni talab etib bormoqda. Yangicha yondoshuvning mohiyati – o'zin texnologiya mohiyati bilan mazmunan birlikni tashkil etadi. Shuning uchun tarbiyachilar tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishning o'yinli texnologiyalaridan unumli foydalanish talab etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. F.R.Qodirova, Sh.K.Tashpulatova. Bolalar bog'chasida metodik ishlar – T.: Voris - 2012 kasb-hunar uchun darslik.
2. O.Hasanboeva, M. Tadjieva, Sh. Toshpulatova va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. —T., «Ilm-ziyo», 2012 O'quv qo'llanma.
3. Каримова, Г., Акбарова, М., Акрамжонов, К., & Йўлдашева, Г. (2021). ЖАМИЯТ ИЖТИМОИЙ ТАРАҚҚИЁТИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. Интернаука, (10-3), 42-43.
4. Kipchakova, Y. (2021). METHODOLOGICAL AND DIDACTIC ASPECTS OF INFORMATION AND INTELLECTUAL CULTURE IN THE EDUCATION OF A DEVELOPED GENERATION. Экономика и социум, (6-1), 156-159.

5. Ташланова, Н. Д. (2019). Развитие критического мышления студентов в вузах. Проблемы современной науки и образования, (11-2 (144)). 10. Karimov A., Muxammadjonov X. INFORMATION TECHNOLOGIES: INFORMATION EDUCATION AND INFORMATICS //Экономика и социум. – 2020. – №. 8. – С. 40-43.